



Raqs LAMI



2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

XALQ ARTISTI QUNDUZ MIRKARIMOVA XOTIRLANDI

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida Xalq artisti, baletmeyster Qunduz Mirkarimova faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ijodiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjumanda san'atimiz namoyondalari, xoreografiya maktablari, teatr va madaniyat muassasalari vakillari, shuningdek, Qunduz Mirkarimova ijodini bo'yicha izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, O'zDXA professor-o'qituvchilari va talabalar ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Shuhrat To'xtasimov kirish so'zi bilan ochib, san'atkorning milliy raqs san'atidagi beqiyos o'rni, ayniqsa, o'zbek raqs san'atini jahon sahnalariga olib chiqishdagi xizmatlarini alohida ta'kidladi.

– Qunduz Mirkarimova umri davomida afsonaviy o'zbek raqslarining ijrochisi va sahnalashtiruvchisi sifatida dunyoga tanildi, - dedi O'zDXA rektori o'z nutqida. – Xitoy, Fransiya, Avstriya, Polsha, Angliya, Shotlandiya, Braziliya kabi dunyoning o'ttizdan ortiq mamlakatlarida bo'lib, o'zbek raqslarini namoyish etdi. San'atimiz darg'asi mahoratli pedagog sifatida ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Uning shogirdlari orasida bugun davlatimizning yuksak unvonlariga sazovor bo'lganlar ko'plab topiladi.

Konferensiya doirasida O'zbekiston xalq artisti, baletmeyster Ma'mura Ergasheva, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar professor O'g'iloy Muhamedova va dotsent Charosoy Jo'rabo'yeva, shuningdek, san'atshunos Nurxon

Zulinova Qunduz Mirkarimovaning ijodiy merosi, sahna harakatidagi yondashuvlari, milliy raqs uslubini zamonaviy balet an'analari bilan uyg'unlashtirish tajribasini alohida e'tirof etishdi.

Shuningdek, konferensiya-da san'atkorning nomini abadiylashtirish, ijodiy maktabini yanada rivojlantirish, yosh baletmeysterlar tayyorlash tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ayniqsa, yosh iste'dodlar tomonidan ijro etilgan raqslar davraga o'zgacha fayz bag'ishladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday ilmiy-amaliy uchrashuvlar na faqat buyuk san'atkor merosini chuqur o'rganish, balki milliy xoreografiya sohasining kelgusidagi rivojiga ham turtki beradi.


Ma'lumot o'rnida: Qunduz Mirkarimova 1925-yil Toshkentda tug'ilgan. 1937-1941-yillarda Tamaraxonim nomidagi balet maktabida ta'lim olgan, 1951-yilda Moskvada Katta teatr qoshidagi xoreografiya bilim yurtini tamomlagan. Muqimiy va Navoiy teatrlari, O'zbekiston davlat filarmoniyasida yakkaxon raqqosa, “Bahor” ansambli badiiy rahbari, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi professori sifatida faoliyat yuritgan.

U “G'ayratli qiz”, “Katta o'yin”, “Xorazmcha raqs”, “Uyg'urcha raqs”, “Rohat”, “Jonon”, “Nay navosi”, “Bahor tongi”, “Tanovor”, “Zang o'yin”, “Pomircha raqs”, “Dildor”, “Gulruh”, “Gulnoz” kabi mumtoz, xalq, zamonaviy va boshqa xalqlar raqslarini mahorat bilan ijro etgan.

Qunduz Mirkarimova O'zbekiston xalq artisti, Mukarram Turg'unboyeva nomidagi mukofot sohibasi, 1997-yilda esa “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlangan. 2019-yil 94 yoshida Toshkentda vafot etgan.

Iroda Ahmadova,
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

USTA OLIM KOMILOV TAVALLUDINING 150 YILLIGI NISHONLANDI



*Usta Olim Komilov
tavalludining
150-yilligiga bag'ishlangan
ilmiy-amaliy konferensiya*

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida o'zbek sahna raqs san'ati asoschilaridan biri, mohir baletmeyster va xoreograf, O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjumanda san'atshunoslar, xoreograflar, O'zDXA professor-o'qituvchilari hamda talabalar ishtirok etdi. Tadbirida so'zga chiqqanlar ustoz san'atkorning boy ma'naviy merosi, milliy raqs san'ati va musiqasi taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissi xususida fikr bildirishdi.

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rahbariyati tomonidan Usta Olim Komilov nomi bilan bog'liq ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, madaniy merosimizni yanada chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim jarayonlariga tatbiq etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Ayniqsa, akademiyaning 2–3 kurs talabalari tomonidan “Doira dars”ning besh qismdan iborat amaliy doira ijrolari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

San'atshunoslar fikricha, bu kabi yig'inlar milliy raqs san'atimizni yanada rivojlantirish, yosh avlodga ulug' san'atkorlarning merosini yet-

kazish va ilmiy asosda tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

– “Doira dars” usullar va o'zbek raqsining harakatlarini o'zida ifodalaydi, - dedi O'zDXA kafedra mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Gulasal Usmonova. – Shu harakat asosida boshqa raqs maktablari shakllangan. Usta Olim Komilov va Tamaraxonim doira usullariga xos raqs harakatlarini ilk o'ylab topishgan. Keyinchalik 1973 yilda Roziya Karimova tomonidan “Doira dars” sistemaga solingan.

Konferensiya yakunida faol ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.


Ma'lumot o'rnida: Usta Olim Komilov 1875 yilda Marg'ilonda tug'ilgan. U doira, nog'ora va chang asboblarini yuksak mahorat bilan ijro etib, o'ziga xos zarb yo'llari va raqs uslubini yaratgan. Uning shogirdlari Tamaraxonim va Muqarrama Turg'unboyevalar ustoz yo'lini davom ettirib, o'zbek raqs san'atini jahon sahnalariga olib chiqdi.

U yaratgan “Zang”, “Gul o'yin”, “Sadr”, “Tantana” kabi raqslar, shuningdek, qayta sayqallangan “Pilla” raqslari bugungi kunda mamlakatimizdagi xoreografiya ta'lim muassasalarida darslik sifatida o'rgatilmoqda.

D.Hakimov,
O'ZA



SUN'IY INTELLEKT YARATGAN ASAR ASLIDA KIMNIKI?



Zamonaviy texnologiyalar san'at olamiga chuqur kirib bormoqda. Bugungi kunda rassom faqat inson emas, balki algoritmlar yoki sun'iy intellekt ham bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, yangi savol yuzaga chiqadi: sun'iy intellekt yordamida yaratilgan rasm, musiqiy asar yoki boshqa ijodiy mahsulot aslida kimga tegishli?

Sun'iy intellekt (SI) yordamida san'at yaratish tushunchasi yangi emas. 1960-yillarda britaniyalik rassom Harold Cohen "AARON" nomli dastur yaratgan, u mustaqil ravishda chizmalar chizgan. Bu dastur rassomning o'ziga xos ijodiy fikrini hisobga olib, kompyuter yordamida murakkab

chizmalar hosil qilgan. XXI asrga kelib, texnologiya ancha rivojlandi: matn-rassom generativ modellari — DALL-E, Midjourney, Stable Diffusion kabi tizimlar keng tarqaldi. Ushbu tizimlar foydalanuvchi kiritgan so'z ("prompt") asosida rasm, musiqiy kompozitsiya, hatto she'r yaratadi. Rassom esa ko'pincha faqat prompt beradi va natijani tanlab, ba'zan kichik tahrir qiladi.

An'anaviy san'atda mualliflik huquqi asarni yaratgan insonga tegishlidir. Shu sababli, agar asar mutlaqo mashina tomonidan yaratilgan bo'lsa va inson minimal hissa qo'shgan bo'lsa, ko'pgina yurisdiksiyalarda bunday asar mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi. Masalan, AQShning Mualliflik Idorasi va 2025-yilda chiqarilgan Apellyatsiya sudi qarorlariga ko'ra, "algoritmlar yordamida, inson ishtirokisiz yaratilgan asarlar mualliflik huquqiga ega bo'la olmaydi". Shu bilan birga, boshqa yurisdiksiyalarda qonunlar farqlidir. Ba'zi mamlakatlarda SI yordamida yaratilgan asar foydalanuvchining sezilarli ijodiy hissasi mavjud bo'lsa, mualliflik tan olinadi. Shu bilan birga, insonning hissasi faqat prompt kiritish bilan cheklansa, bu yetarli hisoblanmaydi. Haqiqiy misol sifatida 2022-yilda Fransiya

2022-yilda Fransiya "Obvious" guruhining generativ SI yordamida yaratilgan "Portrait of Edmond Belamy" asari \$432 500ga sotilgan.

bozorida mashhurligini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, yosh kollektorlar orasida SI yordamida yaratilgan san'at tobora ommalashmoqda: 37 yoshgacha bo'lgan kollektorlarning 82 % onlayn san'at asarlarini sotib olishni afzal ko'radi. SI yordamida yaratilgan san'atda nafaqat huquqiy, balki etik masalalar ham muhim: rassomlar o'z asarlarini mashina o'rgangan ma'lumotlar to'plamida ishlatilganidan xavotirda. Shu bilan birga, oddiy o'quvchi uchun ham qiziq savol tug'iladi: mashina yaratgan san'at aslida "ijod"

sanaladimi yoki bu faqat texnologiya mahsulati? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar mashina tomonidan yaratilgan san'atni san'at sifatida qabul qilishsa ham, uni "rassom asari" deb hisoblash darajasi pastroq. Kelajakda qonunlar, huquqiy meyorlar va san'at bozorida sharoitlar o'zgarishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt va inson ijodi o'rtasidagi chegaralar tobora noaniqlashmoqda. Shu sababli, bugungi san'atshunoslar va huquqshunoslar ushbu jarayonni yaqindan kuzatib, har bir asarning mualliflik huquqini aniqlashga yordam berishi muhimdir.

Bugungi sharoitda mualliflik huquqi bilan tan olishning asosiy mezon — inson ijodiy hissasining mavjudligi. Agar foydalanuvchi rasmni tanladi, tahrir qildi yoki yakuniy kompozitsiyani shakllantirdi, u holda huquqiy mualliflik ehtimoli mavjud. Agar faqat prompt berilgan bo'lsa va barcha ijodiy qarorlar SIga tegishli bo'lsa, bunday asar ko'plab yurisdiksiyalarda "public domain" yoki huquqsiz bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt san'atni yangi yo'nalishlar va imkoniyatlar bilan boyitmoqda, lekin "asar kimniki?" degan savol hali ham javobsiz qolmoqda. Shu nuqtada, har bir o'quvchi — rassom, tadbirkor yoki oddiy san'at ixlosmandi — o'z qarashini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, SI davrida san'at va mualliflik tushunchalari tubdan o'zgarishi ehtimoli yuqori.

Gulasal Qurbonova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

"MING BIR KECHA" BALETIDAGI UNUTILMAS KECHA

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatri repertuaridan joy olgan "Ming bir kecha" nomli balet spektaklida bo'ldim. Bu men uchun unutilmas san'at kechasi bo'ldi. Sahna yorqin chiroqlar bilan bezatilgan, orkestr esa go'zal musiqa sadolari bilan zalni sehirli bir olamga aylantirgan edi.

Mazkur balet XX asrning eng yorqin o'zbekiston klassik asarlaridan biri. Balet "Ming bir kecha" er-taklariga asoslangan bo'lib, unda sharqona muhit, go'zal raqslar, sirli voqealar va sevgi hikoyalari mujassam edi. Balet artistlarining harakati nafis, liboslari rang-barang, har bir harakat musiqaga uyg'un edi. Ayniqsa, bosh qahramon — malika va shahzodaning raqsi tomoshabinlarda katta hayrat va hayajon uyg'otdi. Musiqa ham juda ta'sirli — u ba'zan quvnoq, ba'zan esa sokin va romantik ohanglarda jaranglab, voqealarga jon bag'ishladi. Stenografiya ham er-



taklardagi kabi chiroyli, rang-barang va bir-biri bilan uyg'un edi. Bu balet menga san'atning naqadar go'zal, hissiyotli va kuchli ta'sirga ega ekanligini yana bir bor eslatdi. Har bir raqs, har bir musiqa orqali inson ruhiga iliqlik kirib, xuddi orzular olamiga sayohat qilgandek bo'lasan kishi. Shu kechada men go'yo san'atning sehirli olamiga sayr qilgandek bo'ldim.

Balet san'ati — bu faqat raqs emas, bu inson ruhining so'zsiz ifodasidir. Har bir qadam, har bir harakat ortida ulkan mehnat, qat'iyat va mukammallikka intilish yotadi. Raqs san'atining bu turi go'zallik va kuchning uyg'unlashgan namunasi bo'lib, unda inson tanasi musiqaning ohangiga bo'ysunadi, his-tuyg'ular esa harakat orqali ifodalanadi. "Ming bir kecha" baletida men shuni chuqur his qildimki, balet — bu sportchalik qat'iy mashg'ulot, musiqachilik nozik his, aktyorchalik ifodali san'atdir. Har bir raqqosa sahna-ga chiqishidan oldin soatlab mashq qiladi, shunda u har bir harakatni musiqaga mos, tomoshabinga tabiiy tarzda yetkaza oladi. Bu esa chin san'atkorlik va kuchli irodani talab qiladi. Baletda har bir raqs — bu bir hikoyadir. Har bir aylanish, har bir sakrash — bu qalbning so'zsiz so'zidir. Ayniqsa, "Ming bir kecha" asarida bu hikoyalar, Sharqona ohanglar, sirli hislar va go'zal ifodalar bilan bezatilgan.

Umida Egamnazarova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

ВРУТМАХ

ИСПАНСКОГО ТАНЦА



6 ноября 2025 года в Государственной академии хореографии Узбекистана прошёл мастер-класс примы-балерины и хореографа труппы «Aire Nuevo Danza» Беатрис Морсильо. Мероприятие, которое проводилось в большом зале ГАХ Уз, стало значимым событием, объединившим студентов, педагогов и профессиональных танцовщиков во круг художественного опыта одной из ярких представительниц испанской хореографии. В ходе мастер-класса мы познакомились с четырьмя направлениями испанского танца: школой болеро, движениями танца «Арагонская Хота», стилизованным танцем и фламенко.

Кроме того, мастер-класс включал практические упражнения, направленные на развитие координации, ритмического слуха и выразительности. Мы смогли попробовать элементы «braceo» — характерной работы рук во фламенко, освоить базовые шаги и позиции болеро, почувствовать энергетику фольклорных круговых движений и попробовать себя в стилизованных комбинациях, адаптированных для современной сцены.

Беатрис Морсильо подробно продемонстрировала технику, раскрывала особенности корпуса, акцентов и музыкальности, а также рассказывала о культурных корнях каждого жанра, показывая, насколько многогранна и выразительна испанская танцевальная традиция. Огромное внимание уделялось движениям рук и кистей, а также была продемонстрирована игра на кастаньетах.

«Aire Nuevo Danza» — современная испанская танцевальная труппа из Мадрида, известная своим уникальным подходом к сохранению и развитию национальных танцевальных традиций. Коллектив в своём репертуаре сочетает классические формы испанского

танца с современными художественными решениями, раскрывая богатство культурного наследия страны в новом пластическом языке. Основной творческой труппы является принцип «уважение к традиции — уважение к нашему», что подчёркивает стремление сохранять

аутентичность испанских танцевальных школ при одновременном поиске свежих сценических форм.

Мастер-класс стал важным шагом в укреплении международных связей: подобные творческие встречи расширяют горизонты профессионального образования, способствуют обмену опытом и усиливают взаимодействие между хореографическими школами разных стран. Проведение мастер-класса подтвердило стремление Академии к открытому культурному диалогу и стало основой для дальнейшего сотрудничества и развития творческих проектов между Узбекистаном и Испанией. Подобные мероприятия способствуют расширению творческих горизонтов молодых артистов, обмену педагогическим опытом и взаимному культурному обогащению.

Мастер-класс стал частью масштабной культурной программы, организованной Посольством Испании при поддержке Делегации Европейского Союза в Узбекистане в рамках проекта «Путешествие по испанскому танцу». Эти мероприятия посвящены празднованию Национального дня Испании, который отмечается 12 октября, а также десятому юбилейному Фестивалю европейского кино в Узбекистане.

Государственная академия хореографии Узбекистана подтверждает свою открытость к международным контактам, принимая ведущих мастеров мировой сцены. Данный мастер-класс вдохновил нас на новые идеи и укрепил творческие связи между узбекской и испанской танцевальными школами, заложив основу для будущих совместных проектов, гастролей и творческих обменов.

Елизавета Трашкова,
студентка 3 курса направления
«Профессиональное образование»
ГАХ Уз

2 SI yordamida yaratilgan "Portrait of Edmond Belamy" asari \$432 500ga sotilgan. Bu nafaqat SI san'atining tijoriy qiymatini, balki zamonaviy san'at

BUYUK MEROS

O'zbek xalq raqslari haqida fikr yuritar ekanmiz O'zbekistonning atoqli raqqosa-si, o'zbek sahna raqsining asoschisi Mukarrama Turg'unboyeva ijodi ustida to'xtalmog'imiz darkordir. Uning "Tanovar", "Katta o'yin", "Jonon", "Pilla" va "Paxta" kabi raqslari Oltin fondimizdan joy olib

avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Xalq qalbidan joy olib, tomoshabinlar tomonidan qayta va qayta so'ralgan "Tanovar" raqsi 20-asrda o'zbek raqsining tumori hisoblangan. Bu raqs ilk bor Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan sahnalashtirilgan va ijro etilgan bo'lib, bunda o'zbek ayolining iffati, go'zalligi gavdalanitirilgan. "Tanovar" raqsini sahnalashtirishda Mukarrama Turg'unboyevaga, 1907-yilda Mixail Mixaylovich Fokin tomonidan Anna Pavlova uchun yaratilgan "O'layotgan oqqush"

«"Tanovar" — o'zbek raqs san'atining tumori va ayol qalbining dardli, sokin qissasi.»

poeziyasi va teatr san'atiga katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Buijro darqqosa o'zbek ayolining dardli qarashlari, yuzini berkitgan ro'mol ortidagi hijron, dard, sevgan yorini yo'liga ko'z tikib, shashqator ko'z yoshiga qaramasdan iffat va nomusini saqlab

qolishi gavdalanitiriladi.

San'atshunos, fan doktori Lyubov Avdeyeva o'z esdaliklarida "Tanovar" haqida shunday yozadi: "Bu raqs dildagi dardni is'hor etuvchi, saodatni orzu qiluvchi, yolg'izlikdan sevgilisi tomon, insonlar tomon intilishdek otashin ishtiyoq yashiringan qalb eshigini ochish raqsidir" deya e'tirof etadi.

Ahmadjon Raximov tomonidan yozilgan "Mukarrama-xonim tanovari" kitobida "Adolcha tanovar" haqida ham fikr yuritiladi. Uning yozishicha: "O'tmishda Adolat ismli go'zal, nihoyatda oqila va mahzun ovoqli qiz bo'lgan ekan. Uning nolasini tinglagan har bir inson yana bir tinglash ishtiyoqida bo'lar ekan. Qizning xonishidan xabar topgan zamon zodagonlaridan birining ishq Adolatga tushadi va o'z maqsadiga erishish niyatida ko'p harakat qiladi lekin, hech qanday natijaga erishmaydi. Bundan xabar topgan zodagon qattiq ranjiydi va qizni qatil qilishga buyuradi. Adolat o'limi oldidan oxirgi istagini ado etishlarini iltimos qiladi. Rozilik berilgandan so'ng, u dutor keltirishlarini so'raydi va Adolat dutorning sehrli torlarini chertib, kuylay boshlaydi. Qo'shiqni tinglagan jallodlarning qurollari qo'llaridan tushadi va qatlg qo'llari bormay qoladi. Qalblarining amri bilan bu ishni bajarishdan bosh tortishadi. Shundan so'ng Adolatning zolim akasi qo'lga qurol olib, o'z singlisini o'ldiradi. Parangi ostida oxirgi nafasida, Adolat: "Sen ayrilma mendan, men ham sendan" — deb jon beradi. Uning aytgan qo'shig'i kishilar qulog'ida qoladi. Xalq orasida kuylanib og'izdan-og'izga o'tib, Adolatning musaffo sevgisi qo'shiqqa aylanadi."

Hozirda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 4-bosqichida tahsil olar ekanman milliy raqsimizning ko'p asrlilik tarixi shu kunga qadar rivojlanib kelayotganidan ilhomlanib, uni yanada boyitish ustida ilmiy ish olib borishni o'z oldimga oliy maqsad qilib qo'yganman. Hurmatli prezidentimiz tomonidan "Xoreografiya" yo'nalishi bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilgan ekan biz yosh avlod bundan unumli foydalanishimiz, O'zbekiston madaniyatini jahon miqyosida tanitishda o'z hissamizni qo'shish burchimizdir.

Shahrizoda Olimjonova, "Professional ta'lim" yo'nalishi 4-kurs talabasi

ОСУЩЕСТВЛЕННАЯ МЕЧТА КУНДУЗ МИРКАРИМОВОЙ

Танцовщица, педагог и хореограф, Народная артистка СССР Кундуз Миркаримова - ученица выдающихся мастеров узбекской хореографии Тамары Ханум, Уста Алима Камилова, Юсупа Кызыка Шакарджанова, Мукаррам Тургунбаевой, Гавхар Рахимовой, Исахара Акилова, Розии Каримовой, достойно продолжила дело своих педагогов-наставников, оставив яркий след в танцевальном искусстве Узбекистана.

Родилась будущая артистка 8 марта 1925 года в дружной многодетной семье. Мама Кундуз, видя увлеченность дочки танцами, решила отвести непоседу в балетную школу для того, чтобы девочка могла проводить время, занимаясь любимым делом. В школе Кундуз успешно прошла экзамен у Уста Алима Камилова, который сразу определил ритмичность и музыкальность девочки, а Вера Николаевна Губская - педагог по классическому танцу, отметила хорошие физические данные и перспективу в классическом танце.

Учиться узбекскому танцу у прославленной и любимой народом Мукаррам Тургунбаевой было мечтой, которая осуществилась. Подражая своему кумиру, Кундуз внимательно наблюдала за жестами, мимикой, движениями своей наставницы. В исполнении Мукаррам Тургунбаевой важно было всё - от стиля исполнения до мельчайших деталей - как завязан платок, какие серьги, зебигардон или нитка жемчуга подобраны к костюму. Безупречный стиль, искренность исполнения и понимание сокровенных тайн женской души, завораживали зрителя и юную Кундуз-хон.

Успехи Кундуз-хон проявились и в классическом танце, благодаря таким педагогам как В.Н.Губская и Е.Н.Барановский, о которых К. Миркаримова всегда вспоминала с благодарностью. Но в 1941 году война изменила привычную жизнь и налаженный учебный процесс. Здание балетной школы было передано под госпиталь, а Кундуз Миркаримова со своими одноклассниками Р.Тангуриевым, Р.Хаджисаидовой и другими переехали по направлению учиться и работать в Янгильский театр, где главным балетмейстером была назначена В.Н.Губская. В Янгилье продолжая занятия, ученики активно вливаются в труппу театра и выезжают на гастроли, давая концерты в госпиталях. По окончании войны Кундуз Миркаримова становится ведущей артисткой балетной труппы театра имени Мухоми, где участвует в постановке В. Н. Губской «Сухайль и Мехри» М. Левиева.

В 1949 году в составе одаренных молодых артистов К. Миркаримова направляется в Московское хореографическое училище, где в течение двух лет получает профессиональное образование у таких ведущих педагогов как М.А.Кожухова (заслуженный деятель искусств России и Узбекистана), А.М.Руденко, М.В.Васильева-Рождественская и других.

Вернувшись в Государственный театр оперы и балета имени А. Навои, молодая солистка поняла, что ей ближе национальный репертуар, она с удовольствием исполняла узбекские и восточные танцы в оперных спектаклях.

Создавая в 1957 году ансамбль народного танца «Бахор», Мукаррам

Тургунбаева приглашает свою ученицу в качестве репетитора, видя в ней педагогические задатки. Работа в ансамбле значительно обогатила творческий багаж и способствовала развитию фантазии и образного мышления.

В то же время она преподаёт в Хореографическом училище. В этом направлении раскрывается новая грань дарования Кундуз Миркаримовой - педагога. Ученицы К. Миркаримовой - народная артистка СССР Зебо Амин-Заде, народные артистки Узбекистана Мамура Эргашева, Малика Ахмедова, заслуженные артистки Узбекистана Угиллой Мухамедова, Гульчехра Фазылжанова, Зиёда Мадрахимова, Дильбар Юнусова и многие другие стали профессиональной основой ведущих коллективов Узбекистана и среднеазиатских республик.

Уход из жизни народной артистки СССР Мукаррам Тургунбаевой стал настоящим потрясением не только для театрального мира, это была утрата для всего народа. Ансамбль «Бахор», ставший визитной карточкой танцевального искусства Узбекистана должен был бережно сохранить хореографические сокровища, оставленные Мукаррам Тургунбаевой и развиваться в за-

«Имя Кундуз Миркаримовой осталось в сокровищнице узбекского танца.»

данном ею направлении. Ответственность и руководство коллективом было доверено ученице Мукаррам Тургунбаевой - Кундуз Миркаримовой. Бережно сохраняя репертуар наставницы, Кундуз-опа обогатила репертуар ансамбля своими танцевальными композициями. «Мустахзод», «Занг», «Хамса», «Эй сарви равон», «Дильхинож», «Навруз», «Узбекистон юлдузлари» и многие другие вошли в сокровищницу узбекского танца. Особого внимания заслуживает композиция, посвящённая Мукаррам Тургунбаевой - «Хотира» («Память») - дань Кундуз Миркаримовой своему кумиру и учителю, в которой она представила яркие фрагменты танцев Мукаррам Тургунбаевой и показала возможности молодых артистов ансамбля, достойно сохраняющих наследие своего создателя.

За десятилетний период под руководством Народной артистки СССР Кундуз Миркаримовой Государственный заслуженный ансамбль народного танца «Бахор» имени Мукаррам Тургунбаевой многократно объездил весь Узбекистан, союзные республики и множество зарубежных стран.

В 1988 году Кундуз Миркаримова вернулась к педагогической деятельности, занимаясь подготовкой кадров для ансамбля «Бахор» и других коллективов. Получив в 1996 году звание профессора, имея множество наград, Кундуз-опа оставалась таким же доброжелательным и преданным искусству человеком. Сегодня её ученики - Заслуженные артисты Узбекистана Угиллой Мухамедова, Дильбар Юнусова, Малохат Махмудова передают свои знания и богатый сценический опыт молодому поколению.

Имя Народной артистки СССР Кундуз Миркаримовой остаётся с нами в её танцевальных композициях, вошедших в фонд культурного наследия Узбекистана.

Елена Кари-Якубова, преподаватель кафедры «Теория и



O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASIGA ISPANIYADAN MEHMONLAR TASHRIF BUYURDI

2025-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida "Ispaniya raqsi bo'ylab sayohat" loyihasi doirasida o'ziga xos madaniy-pedagogik tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu loyiha Ispaniya elchixonasi, Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi hamda "Aire Nuevo Danza" raqs kompaniyasi hamkorligida tashkil etildi.

Tadbinning asosiy maqsadi O'zbekiston raqs ta'limi tizimidagi yosh ijodkorlarni ispan raqs san'ati, uning tarixiy ildizlari, sahna uslublari va zamonaviy yo'nalishlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat bo'ldi. Talabalar bu mahorat darslaridan yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Ustozlar esa o'zaro tajriba almashish orqali san'at sohasidagi xalqaro hamkorlikning naqadar muhimligini yana bir bor his etdilar. Ispaniyalik mehmonlarning sahnadagi chiqishlari barchamizni hayratga soldi. Ularning raqsqa bo'lgan ishtiyoqi, har bir harakatdagi ifoda va tuyg'ular tomoshabinlarni o'ziga rom etdi.

Ispaniyaning mashhur prima balet-rinasi, xoreograf va pedagogi Beatriz Morcillo o'ziga xos mahorat darslari bilan bo'lishdi. U o'zining xalqaro tajribasi, nozik didi va o'ziga xos pedagogik yondashuvi bilan ishtirokchilarga chuqur taassurot qoldirdi. Shubhasiz, bu tashrif akademiyamizga o'zgacha shukuh, o'ziga xos ruh olib keldi. Eng quvonarlisi, bu uchrashuv biz — yosh raqqosalar uchun katta motivatsiya bo'ldi va shu o'rinda o'zbek raqs san'atining jozibasini, boy madaniy merosini jahon sahnalarida kengroq targ'ib qilishni, butun dunyoga tanitishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu kabi xalqaro uchrashuvlar nafaqat tajriba almashish, balki do'stlik, xalqlar aro muloqot va ijodiy hamkorlikni mustahkamlash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Gulyuz Qurbonova,
"Xoreografiya jamoalari rahbari"
ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

YOSHLAR QALBIDA IJOD VA MA'NAVIYAT CHIROG'I

Yangi o'quv yilining ilk qadamlaridananoq O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabalari uchun yangigicha ruh, yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu yilgi o'quv jarayoni nafaqat darsliklar va mashg'ulotlar bilan, balki keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan ham boyitilishi rejalashtirilgan. Akademiyada 2025/2026 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan yillik reja talabalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularning qalbida milliy qadriyatlarga hurmat va ijodkorlik ruhini uyg'otishni maqsad qilgan. Unda yoshlarning ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, sport va intellektual musobaqalarda faolligini oshirish, hamda kitob mutolaasiga qiziqishini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. "Talabalarning muzeylarga tashrifi", "Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun" shiori ostidagi madaniy uchrashuvlar, "Talabalar teatr kunlari" kabi tadbirlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, "Talabalar ligasi" sport musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yini va "Yil talabasi" tanlovi esa ularning bilimini sinovdan o'tkazib, irodasini mustahkamlaydi. Birinchi kurs talabalari uchun alohida e'tibor qaratil-

gan. "Talabalikka bag'ishlov" va "Birinchi kurs maktabi" dasturlari doirasida ular akademiyaning go'zal muhitiga kirib keladi, ustozlar va do'stlari bilan yaqindan tanishadi, shuningdek, akademiyaning diqqatga sazovor joylari, axborot-resurs markazi hamda jamoat tashkilotlari faoliyati bilan tanishtiriladi. Bu esa ularning hayotida unutilmas ilk taassurotlar qoldiradi. Yana bir muhim tashabbus – Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, adabiyotimizning yirik namoyandalaridan biri Muhammad Yusuf ijodini o'rganish va targ'ib qilishdir. Akademiya talabalari shoirning hayoti va asarlaridan ilhom olib, milliy adabiyotimizni yanada chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shubhasiz, akademiya belgilangan bu rejalarnafaqat yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy hayotini yuksaltiradi, balki ularning kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan barkamol shaxs bo'lib yetishishida ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xayrullo Atavullayev,
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat b'limi boshlig'i

OLISLARDA QOLGAN QISHLOG'IM...

Hayot insonni turli yo'llarga yetaklaydi. Kimdir shahar hayotining shiddatiga sho'ng'iydi, kimdir olis joylarda yangi imkoniyatlarni izlaydi. Men ham shunday yo'lni tanladim. Lekin yurakning eng iliq va nozik qismi qishlog'imda qoladi. Olislarda yashab, dunyoqarashni kengaytirganim, yangi odamlar bilan tanishganim bilan, xotiramda qishloqning sokin tonglari, darraxtlar soyasidagi bog'lar va shirin mevali dala manzaralari har doim tirik qoladi. Qishloq — bu faqat tug'ilgan joyim emas, balki ruhimni tinchlik, samimiyat va mehr bilan to'ldirgan maskan. Ertalab quyosh chiqqan payt, hovlida o'ynayotgan bolalar kulgisi, qushlar sayrashi, tanish yuzlarning iliq salomi yurakda ilqlik uyg'otadi. Shu sokinlik ichida men do'stlarim bilan o'tkazgan kunlarni eslayman. Dala yo'llarida yugurish, yashirincha sir saqlash, qo'shni bog'larda o'yinlar o'ynash, kichik suv havzalarida sho'ng'ish — bularning barchasi bolaligimni eng quvonchli va rang-barang qilgan. Ba'zan kechki paytlar dalada birga yurib, yulduzlarni sanash va bir-birimizga ertaklar aytish biz uchun oddiy, lekin unutilmas odatga aylangan. Maktab davri esa alohida bir olam edi. Sinf-doshlar bilan darslar orasidagi hazil-mutoyibalar, o'qituvchilar bilan suhbatlar, birga ishlangan loyihalar va kichik g'alabalarni nishonlash — bularning barchasi xotiramda jonli qolgan. Matematika darsida bir-birimizga kulgili savollar berish, ona tili darsida she'rlar o'qish, tabiat darsida bog'larda kichik eksperimentlar qilish — bu oddiy, lekin shirin lahzalar mening qalbimga chuqur o'rin olgan. Hatto darslar oralig'idagi kichik ovqatlanishlar, maktab oshxonasidagi non va choy hidi ham xotiramda tirik. Ammo qishloqdagi hayotning eng iliq va qimmatli tomoni — oilam bilan o'tkazgan lahzalar edi. Ota-onamning mehribon nigohlari, akamning kulgili hazillari, singlim bilan birga o'ynagan o'yinlar

— bularning barchasi mening qalbimga chuqur joylashgan. Bahorda birga bog'ga chiqish, yozda dala mevalarini terish, kechqurun esa uyda otamning aytgan qiziqarli hikoyalari va onamning shirin ovqatlari bilan to'la oilaviy damlar — hayotimning eng shirin xotiralari. Har bir tabassum, har bir quvonchli daqiqa meni yanada baxtiyor qilgan. Qishloqning yozgi kunlari esa alohida bir sehriga ega edi. Biz do'stlar bilan dalada o'ynar, mevalar terar, suv havzalarida sho'ng'ib, qushlar va baliqlarni kuzatar edik. Ba'zan tunda, ochiq havoda yotib, yulduzlar ostida ertaklar aytar, kulgi va suhbat bilan to'lib-toshgan kechalarimizni sanar edik. Shu lahzalar — hayotning oddiy, ammo eng qimmatli xazinalari. Hozir men olislarda yashayapman, lekin yuragimning eng iliq burchagi qishloqdagi xotiralarda. Shu bilan birga, kelajakka oid orzularim va maqsadlarim ham yuragimni to'ldiradi. O'qishga bo'lgan intilishim, yangi bilimlarni o'rganish istagim va hayotimni yaxshilash maqsadim meni har kuni ilhomlantiradi. Shu yo'lda, ota-onam va oilamning qo'llab-quvvatlashi menga eng katta kuch. Akam va singillarim bilan bo'lgan samimiy munosabatlar esa har qanday qiyinchilikni yengishga yordam beradi. Shunday qilib, olislarda yashash va dunyoni kashf qilish men uchun hayotiy tajriba bo'lsa-da, yurakdagi ilqlik va xotira faqat qishloq bilan bog'liq bo'ladi. Uning sokin tonglari, dalalari, bog'lari va mehribon odamlari har doim xotiramda jonli. Qishlog'im — bu nafaqat tug'ilgan joyim, balki ruhim, xotiram va hayotimning ajralmas bir qismi. Olislarda bo'lsam ham, yuragim u yerda, o'sha sokin, mehrlili va o'zgacha olamda qoladi, va men kelajakda qilmoqchi bo'lgan barcha yaxshi ishlarimni shu yerda o'rgangan saboqlar va oila sevgisi bilan davom ettiraman.

Samandar Fayzullayev,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

HAYOT DARYOSI

Hayot tashvishidan horib yurganda,
O'zing uchun yashab, yig'lab-kulganda,
Ishongan insoningdan judo bo'lganda,
Hayot daryosida sekin oqasan.
Ba'zan pandini yeb, qon ham yutasan.
Ishondim deganing yuzin burganda,
Do'st-u birodaring pichoq urganda,
Kelaman deganlar kelmay qolganda,
Hayot daryosida sekin oqasan,
Ba'zan pandini yeb, qon ham yutasan
Qilayotgan ishlaring orqaga ketsa,
Barcha imkoniyatlar eshigin yopsa,
Orzularing armon qo'shig'in aytsa,
Hayot daryosida sekin oqasan,
Ba'zan pandini yeb, qon ham yutasan.
Shukur deb, bariga qo'l siltab qo'ygin,
Alloh bor-ku deya, jim kulib qo'ygin.
Bir kun yig'lab, bir kun kulib saboq olasan,
Hayot daryosidan bol ham totasan,
Ba'zan pand yesang-da, zam-zam ichasan.

Gulasal Qurbonova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

Tanamda jonim titraydi, ona,
Nafs quliga aylandim butkul.
Gunohlarim ko'paydi, ona,
Mol dunyoga to'ymas odam zot.
Egri yo'ldan izlaymiz najot,
Kechirarmi yaratgan ul zot.
Gunohlarim ko'paydi, ona,
Har onimda halovatim yoq.
Qalbim taskin istaydi, ona,

Ulug'bek Rasulov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

ONAM

Olis olislarda, mehribon onam
Men sizni har kuni, ko'rolmayapman
Hali mehringizga, to'yib ulgurmay
O'z uyimga tashlab, ketolmayapman.
Sog'inib yig'lasam, har kuni tinmay
Suratingiz qarab, to'yolmayapman
Quvonib ketardim, ichimga sig'may
Bag'rimga hech bosib, qucholmayapman.

Sevinch Ergasheva,
"Professional ta'lim" yo'nalishi
3-kurs talabasi

TAHRIR HAY'ATI

Nozim Qosimov
Hulkar Hamroyeva
Matluba Murodova
Po'lat Tashkenbayev
Dildora Qosimova
Shahzoda Xudoynazarova
Gulasal Usmonova

BOSH MUHARRIR:

Shuxrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 200
Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:

Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O'rta Chirchiq tumani,
"Mash'al" mahallasi,
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma: 994

Hajmi 1 bosma taboq.